

PEDAGOGIK QOBILYATLAR

Termiz davlat pedagogika instituti Tabiiy fanlar fakulteti Kimyo ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabalari

Abdullayeva Qizlarsuluv

Rahimjonova Farangiz

Annotatsiya: Mazkur maqolada insondagi qobiliyatlarning ta'lim jarayonidagi roli, qobiliyatning turlari, o'quvchilar individual faoliyat uslubi umumiy va maxsus qobiliyatlari, qiziqishlari bilan bog'liq holda shakllanishi to'g'risidagi ma'lumotlar bayon qilingan.

Ka'lit so'zlar: Didaktiv qobiliyatlar, Akademik qobiliyatlar, Pertseptiv qobiliyatlar, Kommunikativ qobiliyatlar, Tashkilotchilik qobiliyati, Avtoritat qobiliyatlar, Kommunikativ qobiliyatlar, Pedagogik xayolot, Diqqatni taqsimlay olish qobiliyati. Pedagogik faoliyatdagi muhim jihatlardan biri bu pedagogik qobiliyatdir.

Pedagogik qobiliyat - bu qobiliyat turlaridan biri bo'lib, kishining pedagogik faoliyatga yaroqliligini va shu faoliyat bilan muvaffaqiyatli shug'ullana olishini aniqlab beradi. Pedagogik psixologiyada o'qituvchilik faoliyatida pedagogik qobiliyatlarning tutgan o'rnini ilmiy izohlab berishga oid samarali tadqiqotlar olib borilgan.

Pedagogik qobiliyat ham o'z navbatida bir qancha turlarga bo'linadi. Dunyo olimlari pedagogik qobiliyatni o'zlarining nazariyalariga asoslanib, turlicha guruhlariga ajratib chiqishgan. Masalan: F.N.Gonobolin pedagogik qobiliyatni quyidagi turlarga ajratishni taklif qilgan.

1. Didaktiv qobiliyatlar
2. Akademik qobiliyatlar
3. Pertseptiv qobiliyatlar
4. Kommunikativ qobiliyatlar
5. Tashkilotchilik qobiliyati
6. Avtoritat qobiliyatlar
7. Kommunikativ qobiliyatlar
8. Pedagogik xayolot
9. Diqqatni taqsimlay olish qobiliyati

T.I.Gavakov esa quyidagicha ifodalagan;

- † ta'lim oluvchilarni his eta olish qobiliyati
- † kishilar bilan samimiy muloqot olib borish, muloqotchanlik
- † kasbiy yetuklik
- † irodaviy ta'sir ko'rsatish va mantiqiy ishontirish qobiliyati
- † o'z-o'zini boshqara olish qobiliyati
- † ijodiy ishga qobiliyatlilik

Tarbiyaviy ishni tashkil etish bilan bog'liq qobiliyatlar esa, boshqa shaxslarning ichki hissiyotlarini tushuna olish, boshqalar haqida qayg'urish, o'zini taqlid uchun namuna sifatida ko'rsata olish, tarbiyaviy jarayonda har bir shaxsning o'ziga xos shaxsiyliklarini hisobga olish, rag'batlantirish, bir-birini tushuna olish, vaziyatga mos ravishda muloqot uslubini tanlay olish,

o'zining shaxsiy tajribalarini boshqalarga yetkazib bera olish, o'z ustida mustaqil shug'ullana olish va rivojlantirishda namoyon bo'ladi.

Pedagogika va psixologiya sohasida olib borilgan ilmiy tadqiqotlarga asoslanib, ta'lim beruvchining pedagogik mahoratlarini quyidagicha tavsiflash mumkin:

1. Oson yo'l bilan murakkab bo'lgan bilimlarni ta'lim oluvchiga tushuntira olish qobiliyati didaktik qobiliyat deb ataladi. Bunda o'qituvchi o'quv qo'llanmalarini tushunarli tarzda o'quvchiga yetqaza olishi kerak, o'quvchilarda mustaqil fikrlay olish ko'nikmalarini shakllantirishi va zaruriyat tug'ilganda o'quvchiga yanada tushunarli bo'lishi uchun o'quv qo'llanmalariga o'zgartirish kirita oladi va yanada soddalashtirish oqibatida murakkab narsa oddiy holatga keladi.

2. Barcha fanlar bo'yicha muayyan bilimlarga ega bo'lishlik akademik qobiliyatdir. Ushbu qobiliyatga ega bo'lgan ta'lim beruvchi o'z faniga oid bo'lgan o'quv qo'llanmasi bilan cheklanib qolmay, izlanishlar orqali, fan-texnika va ijtimoiy-siyosiy hayotga doir qiziqishlar orqali yanada ko'proq bilimga ega bo'ladi.

3. Ta'lim oluvchining ichki olamiga ta'sir ko'rsata olish pertseptiv tur deyiladi. Ushbu turda ta'lim oluvchining emotsional holatini xolis baholagan holda, psixologik o'ziga xoslikni aniqlay olish lozim.

4. O'qituvchining nutqiy qobiliyati; teran, ravon, ma'noli, ohangdor bo'lishi, shuningdek, ma'lum bir nutq me'yorlariga amal qilgan holatda so'zlash talab etiladi.

5. O'quvchilarni xilma-xil faoliyat turiga jalb qilish uchun tashkilotchilik qobiliyati mujassam bo'lishi lozim. Ushbu qobiliyat orqali o'quvchilarni guruh bo'lib ishlashga, muhim vazifalarni jamoa bo'lib hal qilishga ruhlantiradi.

6. Avtoritar qobiliyat, bunda talim beruvchining dadilligi, chidamliligi, qat'iyligi, shuningdek, o'quvchilarga ta'lim hamda tarbiya berish ma'suliyatini his etishga, bu ishonchni o'quvchilarga yetkaza olishiga bog'liq bo'ladi.

7. Muomala va muloqot o'rnata olish qobiliyati, bunda o'quvchilar bilan har qanaqa vaziyatda chiqishib keta olish, o'zaro munosabat o'rnata olishlik talab etiladi.

8. Oldindan ko'ra olishlik qobiliyatiga ega bo'lish bu degani; o'quvchilar kelajagini uning harakatlari orqali bashorat qila olish. Ushbu qobiliyat pedagogik optimizimga, tarbiyaning qudratiga, odamga ishonish bilan bog'liq.

9. Diqqatni taqsimlash qobiliyati - bir necha obyektlarga bir davrning o'zida o'z munosabatini bildirish. Qobiliyatli, tajribali o'qituvchi materialni bayon qilish mazmunini va shaklini, o'z fikrini (yoki o'quvchi fikrini) diqqat bilan kuzatadi, ayni vaqtda barcha o'quvchilarni o'z diqqat-e'tiborida tutadi, toliqish, e'tiborsizlik, tushunmaslik alomatlarini hushyorlik bilan kuzatib boradi, barcha intizom buzilish hollarini e'tibordan qochirmaydi, nihoyat o'z shaxsiy xatti-harakatlarini (mimikasi, pantomimikasi, yurish-turishini) ham kuzatib boradi.

10. Konstruktiv qobiliyat o'quv-tarbiya ishlarini rejalashtirish va natijasini oldindan aytish qobiliyati. Bu qobiliyat o'quvchi shaxsining rivojini loyihalashga, o'quv-tarbiya mazmunini, shuningdek, o'quvchilar bilan ishlash metodlarini tanlab olishga imkon beradi.

11. Tadqiqotga layoqatlilik, o'z faoliyatini, bu faoliyat jarayonini va uning natijalarini tekshirish hamda o'rganish natijalariga muvofiq faoliyatni qayta qurish qobiliyati gnostik qobiliyat deb ataladi.

Olimlarning uzoq yillar olib borgan ilmiy tadqi qotlari va kuzatishlari natijasida pedagogik qobiliyatning quyidagi asosiy sifatleri ajratib ko'rsatilgan:

1. O'z kasbiga muhabbat, o'quvchilarni seva olishi.
2. Mutaxassislik fanini mukammal bilishi, unga qiziqishi.
3. Pedagogik taktga (odob va go'zallikka) ega bo'lish.
4. Bolalar jamoasiga singib keta olish.
5. O'z mehnatiga ijodiy yondashish.
6. Javobgarlikni his etish.
7. Tarbiyaviy bilimlarni egallaganligi.

Shu o'rinda aytadigan bo'lsak ushbu pedagogik qobiliyatlarning barchasi ta'lim beruvchining mahoratini ta'minlab turadi, bundan ko'rinadiki, ushbu qobiliyatlarning barchasiga ega bo'lishlik talab etiladi, albatta, imkon boricha mukammal inson bo'lmaganidek ushbu qobiliyatni hammasini to'laqonli bajarishning imkoni ham bo'lmasligi mumkin. Ushbu holatlarda ta'lim beruvchi o'zining boshqa o'qitish metodikasi va qobiliyatlari orqali osongina chiqib ketishi mumkin.

Shuningdek, pedagogik takt psixologiyasini o'rganishda psixolog I.V.Straxov benihoya katta hissa qo'shgan. Uning fikricha bunda muhimi o'quvchilarga ta'sir etishning eng qulay usullarini topa bilish, tarbiyaviy ta'sirni qo'llashda maqsadga muvofiq pedagogik choralarga e'tibor berish, aniq pedagogik vazifalarni hisobga olish, o'quvchi shaxsining psixologik xususiyatlari va uning imkoniyatlari hamda mazkur pedagogik holatlarini hisobga olish zarurdir.

Maxsus pedagogik qobiliyatlari ichida shundaylari ham borki, ularni aniq o'qituvchilik yoki tarbiyachilik faoliyatiga mansub deb ajratib bo'lmaydi. Negaki, ular har ikkalasi uchun ham bir xilda zarurdir. Bu narsa pedagogik muloqot, muomaladir. Psixolog olim V.A.Kan-Kalik bunday qobiliyatni tadqiq qilib shunday yozgan edi. Pedagoglik ishi o'z tuzilishida ikki yuzdan ortiq tuzilmani tashkil qiladi. Muloqot uning eng murakkab tomonlaridan biridir, negaki u orqali pedagogik faoliyatning eng asosiy maqsadi o'qituvchi shaxsining o'quvchi shaxsiga ta'siri amalga oshiriladi. Pedagogning muhim mahoratlaridan yana biri o'quvchilar bilan uzoq va samarali ta'sir o'tkazishni tashkil etishidir. Odatda bu mahoratni pedagogning kommunikativ qobiliyati bilan bog'laydilar. Kasbiy pedagoglik muloqotiga ega bo'lish - shaxslararo muloqotga tegishli bo'lgan pedagog shaxsining muhim tomonidir.

Aytib o'tish joizki, pedagogik muloqot chog'ida namoyon bo'ladigan kommunikativ qobiliyat bu bolalar ta'lim va tarbiyasi bilan bog'liq pedagogik ta'sir doirasida o'ziga xos ravishda namoyon bo'luvchi muomala qobiliyatidir.

Pedagogik muloqot maxsus jihatining namoyon bo'lishi pedagog tomonidan rag'batlantirish va jazolash usulining qo'llanilishidir. Agar rag'batlantirish yoki jazolash xizmatga yarasha odilona bo'lsa, ular o'quvchilarning yutuqlarini mustahkamlaydilar, qo'llaydilar. Rag'batlantirish va jazolash usullarining mutahkamlash roli pedagogik adolatga bog'liq bo'ladi.

Pedagogning ijodkorligi talabaning ijodkorligini uyg'otadi. Ular o'z talabalarini vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash bilan birga ularning qalbida olijanob fazilatlarni qaror toptiradilar. Shunday ekan, pedagoglarning pedagogik mahoratida shaxsiy faoliyat tizimini ishlab chiqish muhimdir. Hayot kashfiyotlar olami. Tajriba, uslub, fikrlar rang-barang. U samarali mehnat natijasida isbot va dalillar orqali talabalar qalbiga ko'chadi. Ularning tuyg'ulariga ta'sir ko'rsatadi. O'quvchilar, talabalar muallimning faxri, kelajagidir. Shu bois ularning niyati

o'quvchilarni, talabalarni mustaqil yurt quruvchilari, muxandislari, ilmu ma'rifat fidoiylari safida ko'rishdir. Har bir pedagogning o'z faoliyat tizimini ishlab chiqish va unga qat'iy amal qilish uning ta'lim sohasidagi muvaffaqiyatlarining muhim omillaridan biridir. Pedagog bir xil metodlarda dars o'tish bilan cheklanib qolmasligi lozim. Aksincha, u o'qitish metodlarini takomillashtirish ustida tinimsiz ishlashi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ashurova, S., & Numonova, A. (2023). THE ROLE OF PSYCHOLOGY IN FORMING TEACHERS' PEDAGOGICAL ABILITY. *Academia Repository*, 2(11), 46-53.

2. Ашурова, Ш. (2023). Оилада эр-хотин муносабатларини мувофиқлаштиришнинг ўзбек психологлари томонидан таҳлил қилиниши. *Современные тенденции психологической службы в системе образования: теория и практика*, 1(1), 67-71.21.

4. qizi Ashurova, S. F. (2023). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI PSIXOLOGIK VA PEDAGOGIK QO 'LLAB-QUVVATLASHDA PSIXOLOGIK XIZMATNING O 'ZIGA XOS JIHATLARI. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(9 SPECIAL), 418-421.

5. qizi Ashurova, S. F. (2023). OILADA YOSHLARNING SOG 'LOM TURMUSH TARZIGA MUNOSABAT SHAKLLANISHINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK OMILLARI MUAMMO SIFATIDA. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(10 SPECIAL), 32-35.

8. Ashurova, S. F., & qizi Karimova, M. N. (2023). OILADA O 'SMIRLARNING SOG 'LOM TURMUSH TARZI VA OILAVIY HAYOT HAQIDAGI TASAVVURLARI SHAKLLANISHINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK OMILLARI. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(5), 363-368.

9. a, S. (2023). SOG 'LOM PSIXOLOGIK TURMUSH TARZI TO 'G 'RISIDAGI TASAVVURLARINING SHAKLLANISHI. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 3(1).

10. qizi Karimova, M. N., & Ashurova, S. F. (2023). PROFESSIONAL TA'LIMDA TAHSIL OLAYOTGAN QIZLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASH VA ULARDA SOG 'LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(5), 369-373.

11. Nematullaeva, S. (2023, April). The role of play therapy in a child's life. In *Academic International Conference on Multi-Disciplinary Studies and Education (Vol. 1, No. 1, pp. 9-10)*.

12. Имонова, М. Б. (2023). Важность сестровых отношений в личном развитии. *formation of psychology and pedagogy as interdisciplinary sciences*, 2(22), 120-123.

13. Dusmuxeamedova Sh.A., Nishonova Z.T., Jalilova S.X., Karimova Sh. K., Alimbaeva Sh.T. "Yosh va pedagogik psixologiya" T. TDPU, 2013 .

14. Nilufar Boynazarova. (2023). FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE IN PRIMARY CLASS STUDENTS. *Open Access Repository*, 9(10), 99-102. Retrieved from <https://oarepo.org/index.php/oa/article/view/3553>

15. Nilufar Boynazarova. (2023). FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE IN PRIMARY CLASS STUDENTS. *Open Access Repository*, 9(10), 99-102. Retrieved from <https://oarepo.org/index.php/oa/article/view/3553>

16. Usmonova Saboxat Erkinovna. (2023). METHODOLOGY OF SPIRITUAL, ETHICAL AND ECOLOGICAL EDUCATION OF PRIMARY CLASS STUDENTS. *Intent Research Scientific Journal*, 2(9), 170-176. Retrieved from <https://intentresearch.org/index.php/irsj/article/view/216>